

**AUTIZIMLI BOLALARNING IJTIMOY-HISSIY RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK-
PSIXOLOGIK HAMKORLIK MEKANIZMLARI**

**МЕХАНИЗМЫ ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ В
СОЦИАЛЬНО-ЭМОЦИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ С РАССТРОЙСТВАМИ
АУТИСТИЧЕСКОГО СПЕКТРА**

**MECHANISMS OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL COOPERATION IN
THE SOCIAL-EMOTIONAL DEVELOPMENT OF CHILDREN WITH AUTISM
SPECTRUM DISORDER (ASD)**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19190964>

Raximova Gulbahor Valijonovna

*Farg'ona viloyati Pedagogik mahorat markazi
Pedagogika va psixologiya ta'lim texnologiyalari kafedراسи dotsenti,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
gulbahorrahimova1984@gmail.com (+99890)274-67-70)*

Annotasiya

Mazkur maqolada autizm spektr buzilishiga ega bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishida pedagog va psixologlar o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati va samarali mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida autizmli bolalarning ijtimoiy munosabatlarga kirishish, hissiyotlarni anglash va boshqarishdagi qiyinchiliklari tahlil qilinib, ularni bartaraf etishda pedagogik-psixologik yondashuvlarning integratsiyasi muhim omil sifatida asoslab berilgan. Maqolada individual ta'lim dasturlari, kuzatuv, diagnostika, korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar hamda ota-onalar bilan hamkorlik mexanizmlarining o'rni ochib berilgan. Tadqiqot natijalari pedagog va psixologlarning tizimli hamkorligi autizmli bolalarning ijtimoiy moslashuvi va hissiy barqarorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *Autizm spektr buzilishi, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, pedagogik-psixologik hamkorlik, inklyuziv ta'lim, korreksion-pedagogik ishlar, emotsional intellekt, ijtimoiy moslashuv, individual yondashuv, psixologik qo'llab-quvvatlash, ota-onalar bilan hamkorlik.*

Аннотация

В данной статье рассматривается значение и эффективные механизмы взаимодействия педагогов и психологов в социально-эмоциональном развитии детей с расстройствами аутистического спектра. В ходе исследования проанализированы трудности детей с аутизмом в установлении социальных взаимоотношений, понимании и регуляции эмоций, а также обоснована важность интеграции педагогических и психологических подходов в их преодолении. В статье раскрыта роль индивидуальных образовательных программ, наблюдения, диагностики, коррекционно-развивающих занятий и сотрудничества с родителями. Результаты исследования показывают, что системное взаимодействие педагогов и психологов способствует повышению социальной адаптации и эмоциональной устойчивости детей с аутизмом.

Ключевые слова: *Расстройства аутистического спектра, социально-эмоциональное развитие, педагогико-психологическое взаимодействие, инклюзивное образование, коррекционно-педагогическая работа, эмоциональный интеллект, социальная адаптация, индивидуальный подход, психологическая поддержка, взаимодействие с родителями.*

Annotation

This article examines the importance and effective mechanisms of collaboration between teachers and psychologists in the social and emotional development of children with autism spectrum disorders. The study analyzes the difficulties faced by children with autism in social interaction, emotional understanding, and emotion regulation, and substantiates the integration of pedagogical and psychological approaches as a key factor in addressing these challenges. The article highlights the role of individualized educational programs, observation, diagnostics, corrective and developmental activities, as well as cooperation with parents. The research findings indicate that systematic collaboration between teachers and psychologists contributes to enhancing social adaptation and emotional stability in children with autism.

Keywords: *autism spectrum disorder, social-emotional development, pedagogical and psychological collaboration, inclusive education, corrective pedagogical work, emotional intelligence, social adaptation, individual approach, psychological support, parent-professional collaboration.*

KIRISH

So'ngi yillarda yurtimizda inklyuziv ta'limni tashkil etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shu maqsad bilan, imkoniyati cheklangan bolalarning umumiy ta'lim tizimiga qo'shilishi, ularning ijtimoiylashuvi va rivojlanishini qo'llab-quvvatlash zarurati yuzaga kelmoqda. Shu boisdan inklyuziv ta'limni tashkil etishning huquqiy asoslarini puxta ishlab chiqishni vaqtning o'zi talab etmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2021–yil 12–oktyabrda 638-sonli qarori²⁴ga asosan umumta'lim maktablariga inklyuziv ta'limni tashkil etish jarayonida autizm spektri buzilishi bor bolalarni ham qabul qilish ko'rsatilgan. Shunga ko'ra, autizm spektri buzilishi (ASB) bo'lgan bolalar ijtimoiy va hissiy sohalarda o'ziga xos qiyinchiliklarga duch keladi. Bu bolalarda ijtimoiy muloqot, hissiy tushunish, empatiya va moslashuv ko'nikmalari boshqa bolalarga nisbatan sekin rivojlanadi²⁵. Shu sababli, autizmli bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda pedagoglar va psixologlarning roli juda muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik-psixologik hamkorlik mexanizmlari – bu ota-ona, pedagog, psixolog va mahala o'rtasidagi integratsiyalashgan faoliyat tizimi, bolaning hissiy barqarorligi va ijtimoiy moslashuvini oshirishga qaratilgan yondashuvdir. O'zbekiston sharoitida bu mexanizmlar hali to'liq tizimlashtirilmagan bo'lsa-da, ilmiy izlanishlar bolalarning kognitiv va ijtimoiy ko'nikmalarini yaxshilashda samarali ekanini ko'rsatmoqda²⁶.

Mazkur mavzuni o'rgaishdan maqsad – autizmli bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishida pedagogik-psixologik hamkorlik mexanizmlarini aniqlash va ularning samaradorligini baholash. Ayni shu maqsad bilan o'rganishning vazifalari quyidagilardan iborat ekanligini ko'rish mumkin:

- Autizmli bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanish xususiyatlarini o'rganish va tahli qilish;

²⁴ Lex.uz.

²⁵ American Psychiatric Association. (2022). Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (5th ed., text rev.; DSM-5-TR). Washington, DC: American Psychiatric Publishing.

²⁶ Tursunova, N. (2022). Pedagogik-psixologik hamkorlik mexanizmlarining bolalar rivojlanishidagi o'rni. Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali, 4(2), 45–52.

- Pedagogik va psixologik hamkorlik mexanizmlarini tahlil qilish va ishlab chiqish;
- Hamkorlik mexanizmlarini bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishiga ta'sirini baholash va tizimli sturukturasini yaratish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Autizimli bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishida pedagogik-psixologik hamkorlik mexanizmlarini aniqlashda mahalliy va xorijiy olimlarning autizimli bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi va pedagogik-psixologik yondashuvlar bo'yicha olib borilgan ilmiy tahlillari va tadqiqotlar bo'yicha umumiy xulosalar, asosiy yo'nalishlarini ko'rib chiqishda quyidagilar aniqlandi.

Autizimli bolalarning pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlanishibo'yicha ishlar Rossiya va MDH hududlarida asosan inklyuziv ta'lim va maxsus xizmatlar tizimi orqali amalga oshirilishini ko'rishquidagi jihatlarida ko'rish mumkin.

- Bolalarning ijtimoiy va hissiy ko'nikmalari shakllantirishda, mutaxassislar (psixolog, logoped, defektolog, pedagog) birgalikda ishlaydi va individual terapevtik rejalar tuziladi;
- pedagoglar va mutaxassislar, hamda ota-onalar, o'rtasida uzviy hamkorlik orqali individual ta'lim strategiyalari ishlab chiqiladi.

Shu o'rinda, Rossiyada bolaga moslashtirilgan kuchli pedagog-psixologik yondashuv *individual ta'lim dasturi* sifatida qo'llanilishini ma'lum.

O'rganishlar shun ko'rsatmoqdaki, Yevropa kontekstida autizimli bolalar bilan ishlash yana ham tizimli va ilmiy asoslangan mexanizmlarga tayanadi:

Yevropa tadqiqotlarida *inklyuziv ta'lim* autizimli bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishining eng muhim pedagogik sharoitlaridan biri sifatida qaraladi. Uning asosiy mexanizmlari:

- O'quvchilarning ishtirokini oshirish va o'zaro hamkorlikni rag'batlantirish;
- SPARK modeli kabi yondashuvlar – bu pedagogik qo'llab-quvvatlash, hamkorlik, o'zini-o'zi boshqarish va kommunikatsiyaga yo'naltirilgan tizimli modeldir ishlab chiqilgan.

AQSh va boshqa xorijiy davlatlardagi mexanizmlari o'rganishda shu ma'lum bo'ldiki:

Ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarni qo'llab-quvvatlash asosida AQSh va G'arbiy ilmiy doirada ijtimoiy-hissiy rivojlanishga qaratilgan yondashuvlar ham keng o'rganilganligini ko'rish mumkin:

- O'qituvchilarning maxsus tayyorgarligi va pedagogik yondashuvlar, shu jumladan ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha amaliy treninglar;
- Ota-onalar bilan faol hamkorlik, xususan, maktab - oila o'rtasidagi uzviy aloqa tizimlari samarali tashkil etilgan.

Rossiya, Yevropa, AQSh va boshqa mamlakatlarda *learning environment* (o'quv muhiti) darajasida pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy qiyinchiliklarni kamaytirish va o'quvchilarning sensor muhitini moslashtirish bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borilganligini ko'rish mumkin. Shu o'rinda barcha xorijiy davlatlarni mazkur mavzu doirasida o'rganilgan tadqiqotlarini qiyosiy tahlilini quyidagi jadval orqali ham ko'rish mumkin. (*1-jadvalga qarang*)

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

1-jadval. QIYOSIY ASOSIY FARQLAR

Soha	Rossiya	Yevropa	AQSh / Boshqa davlatlar
Inklyuziv ta'lim modeli	Tayyorlanmoqda, ammo ko'p maxsus qo'llab-quvvatlash bilan birga	Markaziy element, tizimli	Kuchli e'tibor, dirlarga tayyorgarlik
Multidisciplinar jamoa	Rivojlanmoqda	Kuchli model	Kuchli, ko'p tadqiqot asoslangan
Tengdosh qo'llab-quvvatlash (peer support)	Kamroq tadqiq qilingan	Yevropa tajribasi fatida real metod	Ba'zan lokal modellar
Ijtimoiy-hissiy strategiyalar	Individual yondashuv ko'p	SPARK, moslashtirish	Ko'p metodlar, mos muhit

O'zbekiston olimlari diqqat markazida autizimli bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishida pedagogik-psixologik hamkorlik mexanizmlarini aniqlash doirasida o'ranilgan izlanishlarda quyidagi jihatlarni ko'rish mumkin. (2-jadvalga qarang)

O'zbekiston olimlari diqqat markazida:

- Autizm spektrli bolalarning psixologik xususiyatlari va diagnostikasi;
- Inklyuziv ta'limda pedagogik va logopedik yondashuvlar;
- Ijtimoiy moslashuv va psixokorreksion vazifalar;
- Ota-ona va maktab o'rtasidagi pedagogik hamkorlik;
- Diagnostika tizimini standartlashtirish va mutaxassislar tayyorlash;

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy ko'nikmalar rivojlanishi kuzatiladi. Bunada hamkorlik mexanizmlari qo'llanilgan guruhda bolalar ijtimoiy muloqot, hissiy ifoda va empatiya ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, oila va maktabdagi integratsiyalashgan pedagogik-psixologik yondashuv bolalarda hissiy barqarorlikni oshiradi.

Pedagogik-psixologik hamkorlik mexanizmlari natijasida, doimiy konsultatsiya va treninglar pedagoglar va ota-onalar uchun samarali natija beradi;

Individual o'quv rejalari va guruh mashg'ulotlari bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni yaxshilaydi;

Mahalla resurslaridan foydalangan holda qo'shimcha mashg'ulotlar bolalar ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

O'rganishlar natijalari shu ko'rsatadiki, pedagogik-psixologik hamkorlik mexanizmlari autizimli bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishida muhim omil ekani.

Tahlillar asosida aniqlangan asosiy xulosalar shundan iboratki, ota-onalar va pedagoglarning muntazam hamkorlikdagi faoliyaini samarali tashkil etish autizm sindromli bolalar uchun qo'llab-

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

quvvatlovchi muhit yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga individual yondashuv va maxsus metodikalar bilan ishlash bolaning hissiy barqarorligini yanada oshiradi. Mahalla va jamiyat resurslarini ta'limga jalb qilish autizm bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirishda samarali hisoblanadi.

Shu bilan birga, integratsiyalashgan yondashuv va individual strategiyalar autizm spektri bo'lgan bolalarning muvaffaqiyatli ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. American Psychiatric Association. (2013). Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (DSM-5).
2. Tursunova, M. (2022). Pedagogic support mechanisms in the social-emotional development of children with autism. *O'zbekistonda Ta'lim va Psixologiya*, 5(1), 45–53.
3. Lord, C., Elsabbagh, M., Baird, G., & Veenstra-Vanderweele, J. (2020). Autism spectrum disorder. *The Lancet*, 392(10146), 508–520.
4. Lex.uz.